

MAVZU. MILLIY HISOBLAR TIZIMI – IQTISODIY STATISTIKANING USLUBIY NEGIZI

Reja

- **Milliy hisoblar tizimi to'g'risida tushuncha**
- **Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblash uslubiyati va o'zaro bog'liqligi**
- **Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining markaziy ko'rsatkichi**

Milliy hisoblar tizimi - yaxlit jamlanma iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlar to'plami bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, natijada yalpi milliy daromadni yaratish, ularni taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan hisobot va statistika tizimidir.

Ushbu tizimda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iste'mol, investitsiya, jamg'arish jarayonlari ketma-ket «T» ko'rinishidagi hisoblarda tasvirlanadi.

MHT balans statistikasining rivojlanishi, milliy daromad, milliy boylik, jamg'arma kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash ishlari evolyutsiyasining natijasidir.

Ishlab chiqarish va uning chegarasi

- **Ishlab chiqarish** deganda ishlab chiqaruvchi birlik tomonidan mehnat, mablag', tovar va xizmatlar sarflari natijasida boshqa turdagi tovar yoki xizmatni yaratib, iste'molchiga (pul yoki tovar evaziga, yoki bepul) etkazib berish jarayoni tushuniladi.
- **Tovarlar** - egalik xuquqi tarqatilishi mumkin bo'lgan fizik predmetlardir, xizmatlar esa - iste'molchi talabi asosida bajariladigan xar xil ishlardir.
- **Iqtisodiy faoliyat** deganda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, iste'mol va jamg'arish jarayonlari tushuniladi.
- **Bozor va nobozor ishlab chiqarish**
- Ayrim tovar va xizmatlar (keksalar yoki bolalar uylarida yashayotganlar uchun kiyim-kechak va oziq-ovqatlar; davlat boshqaruv idoralari, militsiya xizmati, mudofa va shu kabilarning xizmatlari) bozorda sotilmaydi.
- Tovar yoki xizmatlarni iste'molchiga etkazilgandan olingan daromad, shu tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish va etkazishga ketgan sarf-xarajatni to'la yoki yarmidan ko'pini qoplamasa, bunday ishlab chiqarish **nobozor ishlab chiqarish** deyiladi.

Rezidentlik

- Milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo tushunchalari jo'g'rofiy xudud, milliy valyuta va millatga emas, balki rezidentlik kriteriyasiga qarab aniqlanadi.
- **Rezident** deb, iqtisodiy manfaati (qiziqishi) shu mamlakatning iqtisodiy xududiga qaratilgan (yoki joylashgan) institutsional birliklarga aytiladi.
- Boshqa mamlakatning rezident birliklari biz uchun norezident birliklar bo'lib hisoblanadi.
- Mamlakatda joylashgan chet el elchixonalari, xalqaro va diplomatik tashkilotlar, qisqa muddatga (odatda 1 yildan kam) kelgan mavsumiy ishchilar, artistlar, sportchilar, turistlar va x.k.lar rezident hisoblanmaydi.
- Iqtisodiy qiziqish quyidagi belgilar mavjudligida sodir bo'ladi:
 - - doimiy yashash uchun turar joyi bo'lsa;
 - - uzoq muddat davomida (odatda bir yil va undan ortiq) iqtisodiy faoliyatini olib borishi uchun ishlab chiqarish joylari bo'lsa.

- **Rezidentlikni aniqlash kriteriyasi**

- * Davlat boshqaruv idoralari

- * Tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar

- * Oila xo'jaliklari

- * Yakka tartibda iqtisodiy faoliyat yurituvchilar

- **Rezident va norezidentlikni aniqlashdagi**

- **muammolar**

- * Chet el ishchilari

- * Oshfor banklari va boshqa korxonalar

- * Taqdim qiluvchining qimmatbaho qog'ozlari

- * Halqaro tashkilotlar

- * Ko'pmillatli dasturlar

Iqtisodiy hudud

- **Iqtisodiy xudud** - jo'g'rofiy xududdan birmuncha farq qiladi. Iqtisodiy xudud deganda, rezident birliklarning shu mamlakat jo'g'rofiy xududida va mamlakat tashqarisida iqtisodiy faoliyat ko'rsatish xuquqiga ega bo'lgan xududlari majmuasi tushuniladi. Odatda iqtisodiy xududda shaxslar, tovarlar va kapital erkin xarakatda bo'ladi va bu jo'g'rofiy xudud ushbu mamlakatning boshqaruv idoralari yurisdiksiyasida bo'ladi. Unga quyidagilar kiradi:
 - havo bo'shlig'i, xududiy suvlar, qit'a shelflari;
 - boshqa davlatlar xududlaridagi xududiy anklavalar (elchixonalar, konsulliklar, harbiy zonalar);
 - erkin zonalar, offshor faoliyat.

MHTdagi institutsional birliklar tasnifi

Sektorlar	Иқтисодий фаолияти	
	вазифаси	ресурслари
<p>1.Nomoliyaviy korxonalar</p> <p>1.1.Davlat korxonalari</p> <p>1.2.Nodavlat (xususiy) korxonalar</p> <p>1.3.Chet el firmalari</p>	<p>Товарлар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш</p>	<p>Товарлар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш</p>
<p>2.Moliya tashkilotlari</p> <p>2.1.Markaziy bank</p> <p>2.2.Pul korporasiyalari</p> <p>2.3.Yordamchi moliya tashkilotlari</p> <p>2.4.Суғурта ва нафақа фондлари</p>	<p>Молия ресурсларини йиғиш, ўтказиш ва тақсимлаш.</p> <p>Суғурта ва нафақа фонд- ларини ташкил қилиш</p>	<p>Молия операцияларидан олинган фоизлар, фойдалар.</p> <p>Суғурта ва нафақа Бадаллари</p>

давом этади

<p>3. Давлат бошқарув идоралари</p> <p>3.1. Марказий ҳукумат идоралари</p> <p>3.2. Маҳаллий ҳокимият идоралари</p> <p>3.3. Социал таъминот фондлари</p>	<p>Аҳоли гуруҳларига, уй хўжалигига нобозор хизматлар кўрсатиш, миллий даромад ва бойликни тақсимлаш ва қайта тақсимлаш</p>	<p>Бевосита ёки билвосита олинган мажбурий солиқлар</p>
<p>4. Уй хўжаликларига хизмат кўрсатувчи нотижорат ташкилотлар</p>	<p>Уй хўжаликларига, аҳоли гуруҳларига нобозор хизматлар кўрсатиш</p>	<p>Ихтиёрий тўловлар, бадаллар, мулкдан Олинган даромадлар</p>
<p>5. Уй хўжаликлари</p> <p>5.1. Иш берувчилар</p> <p>5.2. Ўзи учун ишловчилар</p> <p>5.3. Ёлланган ишчи-хизматчилар</p> <p>5.4. Хусусий мулкдан даромад олувчилар</p>	<p>Товар ва хизматларни истеъмол қилиш, товар ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш</p>	<p>Иш ҳақи, мулкдан олинган даромадлар, трансфертлар, товар ва хизматни сотишдан тушган тушумлар</p>

Milliy hisoblar tizimidagi hisoblar tarkibi

■ 0. Tovarlar va xizmatlar hisobi

- Bu hisobda mamlakat iqtisodiyotida yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar resurslari hajmi va ulardan foydalanish yo'nalishlarini xarakterlovchi operatsiyalar aks ettiriladi.

■ 1. Ishlab chiqarish hisobi

- Bu hisob ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar (yalpi ishlab chiqarish, oraliq ist'emol, qo'shilgan qiymat)ning hosil bo'lishini ifodalaydi.

■ 2. Daromadlarni hosil bo'lishi hisobi

- Bu hisob ishlab chiqarishda band bo'lgan institutsional birliklarning birlamchi daromadlarini hosil bo'lish jarayonini ifodalaydi.

■ 3. Daromadlarni birlamchi taqsimoti hisobi

- Bu hisobda rezident institutsional birliklarning ishlab chiqarishdan va mulkdan olgan birlamchi daromadlarini sektorlar o'rtasidagi taqsimoti ifodalanadi.

■ 4. Daromadlarni ikkilamchi taqsimoti hisobi

- Bu hisobda mamlakatga yil davomida tushgan tushumlar va joriy transfertlar natijasida mavjud bo'lgan daromadni hosil bo'lishi jarayoni aks ettiriladi.

■ **5. Daromadlardan foydalanish hisobi**

- Bu hisobda mavjud daromadlarni provard iste'mol va jamg'arishga taqsimlash operatsiyalari aks ettiriladi.

■ **6. Kapital sarflar hisobi**

- Bu hisobda rezident institutsion birliklarning yil davomida sotib olgan nomoliyaviy aktivlari (asosiy fondlari) va mavjud asosiy fondlarni jamg'arish va transfertlar hisobiga o'zgarishi jarayonlari aks ettiriladi.

■ **7. Moliya hisobi**

- Bu hisobda sektorlararo moliya-kredit munosabatlaridagi o'zgarishlar aks ettiriladi.

■ **8. Tashqi dunyo sektorining hisoblari:**

- - *joriy operatsiyalar hisobi;*
- - *kapital sarflar hisobi;*
- - *moliya hisobi.*

- Bu sektor hisoblarida norezidentlarning rezidentlar bilan bo'lgan operatsiyalarning holati aks ettiriladi.

Yalpi ishlab chiqarish va yalpi ichki mahsulot

- **Yalpi ishlab chiqarish (YaICh)** – kuzatilayotgan davrda barcha rezident birliklarining ishlab chiqargan mahsulotlari va ko'rsatgan xizmatlari yig'indisiga teng.
- YaICh ko'rsatkichini hisoblashda takroriy hisoblar mavjud bo'lib, ular odatda oraliq iste'moli tushunchasiga tenglashtiriladi.
- **Oraliq iste'mol (OI)** deb, hisobot davri mobaynida ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan (ishlatilgan) tovarlar va xizmatlar qiymatiga aytiladi.
- **Yalpi ichki mahsulot (YaIM)** - yalpi ishlab chiqarishdan oraliq iste'mol ko'rsatkichini chegirib tashlash natijasida aniqlanadi.

MHTda qo'llaniladigan baholar tizimi

Omil bahosi, asosiy baho, ishlab chiqaruvchi bahosi, sotib oluvchi (iste'molchi) bahosi, bozor bahosi tushunchalari.

Bir bahodan ikkinchi bahoga o'tish yo'llari

- **Omil bahosi** = Oraliq iste'mol + Mehnat xaqi + Yalpi foyda;
- **Asosiy baho** = Omil bahosi + Ishlab chiqarishga sof soliqlar;
- **Ishlab chiqaruvchi bahosi** = Asosiy baho + Mahsulotga sof soliqlar;
- **Iste'molchi bahosi** = Ishlab chiqaruvchi bahosi + Savdo-transport ustamasi.

MHTda soliqlar, subsidiyalar va ularning tasnifi

Asosiy tushunchalar va ta'riflar

Institutsional birliklar tomonidan davlat birliklariga majburiy (qonun bilan belgilangan tartibda) ravishda to'lanadigan to'lovlarga **soliqlar** deyiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i - ishlab chiqaruvchi birliklardan yig'ilgan soliq bo'lib, uni iste'molchilar to'laydi.

Import solig'i - tovar va xizmatlarni norezidentlardan rezidentlarga o'tganda to'lanadigan soliq bo'lib, tovar yoki xizmatlarning bojxona (davlat) chegarasidan o'tish vaqtida to'lanadi.

Eksport solig'i - tovar va xizmatlarni rezident birliklardan norezident birliklarga o'tganda to'lanadigan soliq bo'lib, tovar va xizmatlar iqtisodiy xududdan chiqib ketish vaqtida to'lanadi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan boshqa ishlab chiqarish solig'i - ishlab chiqaruvchi birliklarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashganliklari uchun to'lanadigan soliqlardan iboratdir (er solig'i, resurslar uchun soliqlar va x.k.).

Mahsulotga soliq - ishlab chiqaruvchi birliklarning tovar yoki xizmatni boshqa institutsional birliklarga sotish (yoki berish va almashish) vaqtida to'lanadigan soliq bo'lib, tovar va xizmatning miqdoriga nisbatan aniqlanadi va u amaliyotda egri soliq deb ham yuritiladi.

Subsidiyalar - davlat tomonidan institutsional birliklarga ishlab chiqarish faoliyatini yuritish, chetga tovar va xizmatni sotish va boshqa faoliyatlaridagi xarajatlarini qisman qoplash uchun to'lanadigan va qaytarib olinmaydigan to'lovlardan iborat.

Ishlab chiqarish uchun subsidiyalar - institutsional birliklarning ma'lum bir iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanganliklari uchun davlatdan olgan to'lovlardan iborat.

Mahsulot uchun subsidiyalar - davlat tomonidan institutsional birliklarga ishlab chiqargan tovarlari yoki ko'rsatgan xizmatlarining har bir birligiga nisbatan beriladigan to'lovlardan iborat.

Import subsidiyasi - davlat tomonidan institutsional birliklarga ularning rezident birliklarga import mahsulotini etkazish yoki xizmatini bajargan vaqtlarida beriladigan to'lovlardan iborat.


Eksport subsidiyasi - davlat tomonidan institutsional birliklarga ular tovar yoki xizmatlarni eksport qilganlarida beriladigan to'lovlardan iborat.

Institutsional birlik deb, iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega bo'lgan va boshqa iqtisodiy birliklar bilan o'zaro iqtisodiy faoliyatda va operatsiyalar qilish xuquqiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi birliklarga aytiladi.

Institutsional birlik quyidagi belgilarga ega bo'lishi lozim:

- aktivlar egasi bo'lishi, ya'ni mustaqil ravishda ishlab chiqargan mahsuloti va ko'rsatgan xizmatini sotishi, almashishi, tekinga berib yuborishi mumkin;
- o'ziga majburiyatlar olishi (shartnomalar tuzishi, kredit olishi va x.k.);
- boshqa birliklar bilan mustaqil iqtisodiy faoliyat va operatsiyalar olib borishi;
- buxgalteriya hisobini yuritishi yoki davlat oldida (qonun bilan belgilangan tartibda) hisob berib turishi;
- o'z faoliyati natijasiga o'zi javobgar.

Institusional birliklar



Миллий ҳисоблар тизимининг асосий счетлари

1. Товарлар ва хизматлар смети

<i>Ресурслар</i>	<i>Фойдаланиш</i>
Ялпи ишлаб чиқариш	Оралиқ истеъмол
Товарлар ва хизматлар импорти	Пировард истеъмолга харажатлар
Маҳсулотларга солиқлар	Ялпи жамғариш
Маҳсулотларга субсидиялар (-)	Товарлар ва хизматлар экспорти

2. Ишлаб чиқариш смети

<i>Ресурслар</i>	<i>Фойдаланиш</i>
Ялпи ишлаб чиқариш	Оралиқ истеъмол
Маҳсулотларга солиқлар	Ялпи ички маҳсулот
Маҳсулотларга субсидиялар (-)	

3. Даромадларнинг шаклланиш смети

<i>Ресурслар</i>	<i>Фойдаланиш</i>
Ялпи ички маҳсулот	Ишчиларга меҳнат ҳақи
Ишлаб чиқаришга субсидиялар	Ишлаб чиқаришга солиқлар
	Ялпи фойда/аралаш даромад

давом этади

4. Бирламчи даромадларни тақсимлаш счети	
<i>Ресурслар</i>	<i>Фойдаланиш</i>
Ялпи фойда/аралаш даромад	Ишлаб чиқаришга субсидиялар
Ишчиларнинг меҳнат ҳақи	Қолган дунёга берилган мулкдан даромадлар
Ишлаб чиқаришга солиқлар	Бирламчи даромадлар сальдоси (Ялпи миллий даромад)
Қолган дунёдан олинган мулкдан даромадлар	
5. Даромадларни иккиламчи тақсимлаш счети	
<i>Ресурслар</i>	<i>Фойдаланиш</i>
Бирламчи даромадлар сальдоси (Ялпи миллий даромад)	Қолган дунёга берилган жорий трансфертлар
Қолган дунёдан олинган жорий трансфертлар	Ялпи миллий ихтиёрдаги даромад

давом этади

6. Ялпи миллий ихтиёрдаги даромаддан фойдаланиш смети	
<i>Ресурслар</i>	<i>Фойдаланиш</i>
Ялпи миллий ихтиёрдаги даромад	Пировард истеъмолга харажатлар
	уй хўжаликлари
	давлат
	нотижорат ташкилотлари
	Ялпи миллий жамғариш
7. Капитал билан операциялар смети	
<i>Ресурслар</i>	<i>Фойдаланиш</i>
Ялпи миллий жамғариш	Асосий капиталнинг ялпи жамғарилиши
	Моддий айланма маблағлар захираларининг ўзгариши
	Қимматбаҳо бойликларнинг соф сотиб олиниши
	Соф қарз бериш (+) / қарз олиш (-)

2. Ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)



ЯИМ дефлятори - мамлакат миқёсида барча ишлаб чиқарилган товар ва хизматлар ўртача нархининг базис даврга нисбатан ўзгариш динамикасини ифодаловчи индексдир.

ЯИМ дефлятор кўрсаткичидан фойдаланиб, ўзаро боғлиқликка асосланиб номинал ЯИМ ёки реал ЯИМни аниқлаш мумкин. Реал ЯИМнинг аҳамиятли жиҳати унда кўрсаткичлар пул кўринишида эмас, балки ишлаб чиқарилган товарлар ва хизматлар олдинги йилга нисбатан қанча фоизга ўзгарганлигини аниқлаш мумкин.


$$\text{ЯИМ дефлятори} = \frac{\text{Номинал ЯИМ}}{\text{Реал ЯИМ}}$$

$$\text{Реал ЯИМ} = \frac{\text{Номинал ЯИМ}}{\text{ЯИМ дефлятори}}$$

$$(1+v) \approx (1+g) \cdot (1+p)$$

v – номинал ЯИМнинг % да ўзгариши
 g – реал ЯИМнинг % да ўзгариши
 p – ЯИМ дефляторининг % да ўзгариши

ЯИМ ва ЯМД нинг фарқланиши



Ялпи миллий ихтиёрдаги даромад (**GNDI**) – мавжуд давлат иқтисодий агентлари томонидан ишлаб чиқарилган пировард маҳсулот ва хизматлар ялпи қиймати ҳамда хорижий давлатлардан олинган соф жорий трансфертлар (**TRf**) йиғиндисига тенг: **GNDI=GNI + TRf**

ЯИМ ни ҳисоблаш методлари

GDP



Қўшилган қиймат =

Ялпи ишлаб чиқариш – Оралиқ истеъмол (моддий ва номоддий харажатлар)

=

Тармоқларда яратилган қўшилган қиймат (VA)

+

Соф эгри солиқлар (TSP) =
Қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС) +
Акциз солиқлари + Экспорт-
импорт операцияларидан
ундириладиган солиқлар (божхона
божи) - Маҳсулотлар учун
белгиланган субсидия

Тармоқлар:


Бир хил турдаги фаолият
кўрсатувчи корхоналар гуруҳи

Қўшилган қийматга мисол:



60

$$60+35+15+10=120$$



$$60+35=95$$



$$95+15=110$$



$$110+10=120$$

ЯИМ ни ҳисоблаш тартиби

2. Даромадлар бўйича

GDP

=

Меҳнат ҳақи (W)

+

Ялпи фойда (OS)

- a) ижара ва рента тўловлари
- b) амортизация
- c) дивиденд, процент
- d) даромад солиғи
- e) тақсимланмаган фойда

+

Соф эгри солиқлар (TSP)

3. Харажатлар бўйича (якуний истеъмол)

GDP

=

**Уй хўжалиқлар истеъмоли (Cp)
(соф истеъмол) + давлат жорий
истеъмол харажатлари (Cg)**

+

Ялпи жамғарма (I):

- a) ялпи инвестициялар
 - амортизация (капитал истеъмоли)
 - соф инвестициялар
- b) захиралар ўзгариши

+

Соф экспорт (NX)

(экспорт (E) минус импорт (M))³⁴

Ялпи миллий жамғарма миқдори

Ялпи миллий жамғарма миқдори (S) эга бўлинган ялпи миллий даромад ва якуний истеъмол ўртасидаги фарқ сифатида аниқланади

$$S = GNDI - C$$

ЯИМ ни ҳисоблаш муаммолари

- маҳсулотларнинг ҳамма тури ҳам аниқ ўлчашни талаб қилмайди, яъни бозорда олди-сотди предмети ҳисобланмаган (масалан: nobozor фаолият, жамоат ишлари, ёрдамчи хўжалик фаолиятини бошқариш)
- миллий ҳисоблар товарлар сифатининг ўсишини муносиб ифодалай олмайди
- МҲТ алоҳида олганда жинойтчиликка қарши кураш, атроф муҳитнинг ифлосланиши, яширин иқтисод кабиларнинг фаолиятини ифодалай олмайди
- статистикадаги камчиликлар

Асосий боғлиқликлар

$$GDP = C + I + (X - M) = A + (X - M)$$

$A = C + I$ – ички ялпи талаб

$$GNI = GDP + Y_f = C + I + (X - M + Y_f) = A + (X - M + Y_f)$$

$$GNDI = GDI + TR_f = C + I + (X - M + Y_f + TR_f) = A + (X - M + Y_f + TR_f)$$

$$X - M + Y_f + TR_f = CAB$$

$$GNDI - A = CAB$$

$$GNDI - C - I = CAB$$

$$GNDI - C = I + CAB = S$$

$$S - I = CAB$$

Инфляция

Инфляция - нархларнинг ўсиши, миллий валютанинг қадрсизланиши. ЯИМ дефлятори, ИНИ.

Истеъмом нархлари индекси (ИНИ) – оддий истеъмомчи томонидан истеъмом этиладиган истеъмом савати маҳсулот ва товарлари нархининг ўсишини белгилайди.

ЯИМ дефлятори ва ИНИ ўртасидаги тафовут:

- қамраб олинмаган товар ва хизматларнинг турли-туманлиги: ЯИМ фақат мамлакатда ишлаб чиқарилган товарларни ўз ичига олса, ИНИ импорт маҳсулотларини ҳам қамраб олади
- ИНИ истеъмом савати товар ва хизматларининг қатъий ўрнатилган таркиби асосида ҳисобланади (Ласпейрес нарх индекси)
- ЯИМ структураси ўзгариши билан унга кирувчи товарлар ҳам ўзгаради (Пааше нархлар индекси)

Баҳолар индексини ҳисоблаш формулалари

Базис даври вазнларидаги индекс (Ласпейрес)

$$Pl = \frac{\sum P_t Q_0}{\sum P_0 Q_0}$$

Истеъмол нархлари индексини ҳисоблаш учун қўлланилади.

Мамлакатда ишлаб чиқарилган ва импорт қилинган маҳсулотлар ички истеъмол нархини ифодалайди.

Истеъмол структурасини ўзгармас ҳолда олади.

Жорий давр вазнларидаги индекс (Пааше)

$$Pp = \frac{\sum P_t Q_0}{\sum P_0 Q_t}$$

ЯИМ дефляторини ҳисоблаш учун қўлланилади.

Мамлакатда жорий даврда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар нархини эътиборга олади.

Ишлаб чиқариш структураси ўзгаришини эътиборга олади.

Фишер индекси

$$P_f = \sqrt{P_l * P_p}$$

Фишер индекси Ласпейрес ва Пааше нарх индексларидаги камчиликларга барҳам беради

Даромад ва бандлик

Реал иш ҳақи = Номинал иш ҳақи / баҳолар индекси

Номинал иш ҳақининг ҳақиқатда сотиб олиш қувватини ифодаловчи кўрсаткич

Реал даромад = Номинал даромад / баҳолар индекси

Номинал даромаднинг ҳақиқатда сотиб олиш қувватини ифодаловчи кўрсаткич


Даромад турлари:

- иш ҳақи
- индивидуал меҳнат фаолиятдан олинган даромад
- трансфертлар
- молиявий тизимдан олинган даромадлар

Ишчи кучи ва ишсизлик

Ишчи кучи – меҳнатга қобилиятли ёшдаги шахслар

Ишсизлик – иқтисодиётда ишчи ўринларига бўлган талабнинг таклифдан ошиб кетиши натижасида содир бўлади.



Бозор иқтисодиёти шароитида 100% бандликка эришиб бўлмайди. «Тўлиқ бандлик» тушунчаси нисбий бўлиб, маълум ишсизлик даражаси мавжудлигини (нормал) тан олади

Бандлик ва ишсизлик даражалари

Тўлиқ бандлик – иқтисодиётда бандликнинг оптимал даражаси

Бандлик даражаси = бандлар сони / ишчи кучи сони

Ишсизлик даражаси = Ишсизлар сони / ишчи кучи сони

Ишсизлик даражаси

Фрикцион ишсизлик

Ишсизликнинг бу тури иш излаш ёки меҳнат қилиш даврини кутиш билан боғлиқ бўлиб, унинг даражаси меҳнат бозори самарасини ифодалайди.

Структуравий ишсизлик

Ишсизликнинг мавжуд тури ишчиларнинг малкасини ошириш, мутахассислиги ўзгартириш билан боғлиқ даври ўз ичига олиб, технологик ўзгаришлар ва маълум ихтисосликка эга бўлган ишчи кучига бўлган талабдан келиб чиқади.

Циклик ишсизлик

Иқтисодий фаолият ёмонлашиши ва ишчи кучига бўлган талабнинг қисқариши билан боғлиқ.

Ишсизликнинг табиий даражаси (ЯММ потенциал даражасига мос келади).

Иқтисодий ва ноиқтисодий харажат ошишига олиб келувчи ишсизлик.

Иш ҳақи, нархлар ва унумдорлик

Иш ҳақи, нарх ва унумдорлик ўсиш даражаси ўзаро боғланган

P – нарх умумий даражаси

W – иш ҳақининг ўртача даражаси

L – умумий меҳнат харажатлари, киши/соат

Y – ишлаб чиқариш реал миқдори

Y/L – меҳнат унумдорлиги

WL – иш ҳақи умумий фонди

WL/Y – ишчи кучи харажатининг бир бирлик маҳсулотдаги улуши

$$P^*/P = W^*/W + (L^*/L - Y^*/Y) \quad 1)$$

$$P^*/P = W^*/W - (Y^*/L^*) / (Y/L) \quad 2)$$

Инфляция даражаси = иш ҳақи ўсиш даражаси – меҳнат унумдорлиги ўсиш даражаси

$$W^*/W - P^*/P = Y^*/Y - L^*/L \quad 3)$$

$$(W^*/P^*) / (W/P) = (Y^*/L^*) / (Y/L) \quad 4)$$

Реал иш ҳақи ўсиш даражаси = меҳнат унумдорлиги ўсиш даражаси